

### **БОШ МУҲАРРИР**

**Шавкат Шарипов** –  
педагогика ф. д., профессор

### **БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРЛАРИ**

**Усмонжон Қосимов** – фил. ф. д.  
**Ғайрат Қодиров** – биология ф. н., доц

### **МАСЪУЛ КОТИБ**

**Фаррух Ақчаев** – тарих  
ф. б. ф. д., (PhD)

### **ТАРЖИМОНЛАР:**

**Намоз Каримов,**  
**Элдар Ҳасанов**  
(рус тили)

**Камалиддин Нормуродов**  
(инглиз тили)

### **САҲИФАЛОВЧИЛАР**

**Гулжахан Кадирова**  
**Адолат Ускинбоева**

### **НАВБАТЧИ МУҲАРРИР:**

**Феруза Жумаева** – филология  
ф. б. ф. д., (PhD)

**Журнал андозаси Ахборот  
технологиялари марказида**  
**Расулжон Меликузиёв**  
томонидан тайёрланди

**Муассис** - Жиззах давлат  
педагогика институти

Журнал йилда 4 мартаба  
(ҳар чорақда) чоп этилади.

Матнларда фойдаланилган кўчирма  
ва маълумотлар аниқлиги учун  
муаллифлар масъулдирлар.

Журналдан кўчириб босилганда  
манба қайд этилиши шарт

### **ЖАМОАТЧИЛИК КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ**

Анатолий Сагдуллаев – тарих ф. д., академик  
Комилжон Тожибоев – биология ф. д., академик  
Жак Миклович – INSHEA университети профессори (Франция)  
Василий Кочурко – Баранович ДУ профессори, техника ф. д.  
(Белоруссия)

Гулсем Лекерова – психология ф.д., профессор (Жануб.  
Қозоғистон)

Фурқат Жўрақулов – сиёсий ф. д., доцент

Ботир Тўхтамишев – техника ф.н., доцент

Сарвар Назарқосимов – социология ф. б. ф. д.

Бахтиёр Тўраев – фалсафа ф.д., профессор

Холбўта Турақулов-техника ф.д., профессор

Бахти Очилова - фалсафа ф.д., профессор

Қозоқбой Йўлдошев – педагогика ф. д., профессор

Умрзоқ Жуманазаров – филология ф. д., профессор

Абдуғафур Маматов - филология ф. д., профессор

Раҳматулла Бекмирзаев – физика-математика ф. д., профессор

Ойбек Аҳмедов – филология ф.д., профессор ЎзДЖТУ

Фания Аҳмедшина – тарих ф. д., профессор

Ҳамид Мелиев – педагогика ф. н., профессор

Худойберган Мавлонов – биология ф. д., доцент

Қўчқор Ҳакимов – география ф. н., профессор в.б.

Исламов Илёс – тарих ф. д., доцент

Рустам Абдурасулов – психология ф. д., доцент

Зухра Яхшиева – кимё ф. д., доцент

Мухторқул Пардаев - тарих ф. н., доцент

Раббим Юсупов – техника ф. н., доцент

Олег Ким – филология ф. н., доцент

Камалиддин Зойиров – педагогика ф.н., доцент

Абдували Шамсиев – иқтисод ф. н., доцент

Суннатулло Соипов – филология ф. н.

Юлдуз Каримова – филология ф. н., доцент.

Омон Исаров – филология ф. н., доцент.

Шерали Абдураимов – педагогика ф. б. ф. д., доцент

Фурқат Аҳмедов - педагогика ф.н., доцент

Тўйчи Аҳмедов – тарих ф.б.ф.д.

Журнал Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий Аттестация комиссиясининг филология, фалсафа ва педагогика фанлари бўйича эксперт кенгаши (2018-йил 29-декабрдаги 260/6-сон баённомаси) тавсияси билан нашрлар рўйхатига киритилган.

**Журнал Жиззах вилояти Ахборот ва оммавий коммуникациялар бошқармасидан 2020-йил 25-апрелда 06-042 рақам билан қайта рўйхатга олинган. Журналнинг халқаро ISSN рақами: 2181- 6131**

МАНЗИЛ: 130100, Жиззах шаҳри,  
Ш. Рашидов кўчаси, 4-уй, бош бино  
ТЕЛЕФОН: (99872) 226 02 93,  
(99897) 644 84 44  
ФАКС: (99872) 226 46 56

ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ  
МАТБАА БЎЛИМИ

Жиззах шаҳри, Шароф Рашидов кўчаси, 4-уй  
2021-йил 25- март куни босмаҳонага топширилди.

Қоғоз бичими А4 Буюртма: \_\_\_\_\_  
Нашр адади: 100

# MUNDARIJA

## TAQVIM:

Y.Karimova, U.Qosimov Qodiriy abadiyati.....	3
--	---

## PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

B.B.Abdug'aniyev Ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari.....	5
U.U.Jumanazarov "Raqamli ta'lim" muhitini tashkil etishning ustuvor vazifalari.....	9
G.N.Kurbanova, Sh.T.Yuldashova Talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy ma'ruza mashg'ulotlarining ahamiyati.....	13
G.Abduraimova Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	16
Kh.Ganiyeva The signification of punctuation marks in emotiona expression in english.....	20
N.M.Axmedova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	23
G.N.Djurayeva Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani xorijiy til muloqotini o'qitish asosida takomillashtirish.....	26
R.T.Eshmamatov Ways of improving language skills on learner autonomy.....	30
O.A.Qo'ysinov Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda kompetentli yondashuv.....	33
Sh.Djamaldinova Maktab adabiyot darslarida muammoli ta'limdan foydalanish.....	36

## AMALIY FANLAR

F.Sh.Axmedov Dzyudochilarning musobaqa va mashg'ulot yuklamalarining qiyosiy tahlili.....	39
N.M.Avliyakulova Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish yo'llari.....	41

## IJTIMOY FANLAR

Z.G'oziyev So'fi olloyorning ijtimoiy-falsafiy merosini o'rganishga oid ba'zi mulohazalar.....	44
M.A.Sherboboyev Tanqidiy ratsionalizm ilmiy bilishning metodologik vositasi sifatida.....	47
Z.A.Bozorov Talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda motiv va ehtiyojlarning ahamiyati.....	50
O.T.Sharipova "Rif'at shayx" kitobi xususida.....	53
S.Mavlanova Globallashuv davrida yosh avlodni milliy g'oya va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash muammolari.....	55
D.R.Yunusov Eramizdan oldingi davrlarda hurfikrlilik g'oyalari.....	59
S.U.Xodjaniyazov Xorazm mutafakkirlarining tasavvufiy qarashlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari.....	62
J.X.Shodiyev, A.M.Mirkamilov Talabalar o'rtasida huquqiy ta'lim mazmunini takomillashtirish.....	66
Z.R.Eshmurodova Bolaga ism qo'yishning sharq va g'arbga xos etnografik xususiyatlari.....	70
S.T.Mamatkulov Shaxsda hayotiy pozitsiya shakllanishining e'tiqodlar tizimi bilan aloqadorligi.....	73

## FILOLOGIYA FANLARI

3.Пардаева Художественный образ как форма отражения действительности.....	78
M.D.Abdullayeva "Shajarayi turk" da kichik epik janrlar.....	81
Sh.I.Botirova Adabiyot va adabiyot o'qitish metodikasi: uyg'unlik va farq.....	84
F.G.Sharipov Ayyub g'ulomovning so'z yasalishiga doir qarashlari.....	88
D.N.Nusratilloeva Xurshid davron lirikasida davr va shaxs masalasi talqini.....	91
F.Jumayeva Ko'makchilarning semantik, sintaktik xususiyatlari.....	94
D.D.Muminova Nomalarning mavzu jihatdan farqlanishi.....	98
X.Xolmurodov Alisher navoiy she'riyatida epik talqinlarning lirik ifodasi.....	101
N.X.Kushvaktov M.R.Isaqulov Saida zunnunovanning "kechikish" hikoyasida jaholatga qarshi ma'rifat g'oyalari talqini.....	105

## TABIIY VA ANIQ FANLAR

S.Sidiyarov Jamiyat rivojlanishida STEAM ta'limi metodining o'rni.....	108
M.Barakayev, A.Shamshiyev, G.Goyibnazarova Maktabda "logarifm"lar mavzusini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	111
S.S.Turdiboyev O'quvchilarga geometrik masalalarni ishlashda konstruksiyalash usulidan foydalanishni o'rgatish.....	116
U.A.Soatov, K.S.Axadova Tenglama va tengsizliklarni yechishning ba'zi nostandart usullari haqida.....	118
Z.Sh Alimardonov, S.H Isakov Bo'lajak ofitserlarning o'q o'tish tayyorgarligi bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni.....	122
M.Sh.Ahadov Kimyo ta'limida "VR", "AR", "MR" va "3D" texnologiyalarining o'rni.....	127
S.N.Nosirov, D.D.Aroyev, A.A.Sobirov Ikki nuqta orasidagi masofaning ba'zi xossalari.....	131

## YOSH TADQIQOTCHILAR

L.A.Xaitov Hakim termiziy ma'naviy merosida qalb tushunchasi.....	134
M.Ko'bayev Mashrab yashagan davrdagi madaniy-ma'naviy hayotning o'ziga xos xususiyatlari.....	137
A.A.Abdurahmonov Jadid matbuotida ta'lim-tarbiya masalalariga e'tibor.....	141
R.Ablyakimova Nodavlat maktablar va ularni o'zbekistonda rivojlantirish imkoniyatlari.....	144
D.B.Toshpulatova Globallashgan dunyoning metaforik obrazi.....	147
G.Esirgapova Modern she'riyatida ramz va falsafa.....	151
M.M.Yusupov Baholash – oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy o'zini o'zi belgilashini rivojlantirishning omili sifatida.....	155
K.A.Jo'rayev "Layli va majnun" tipidagi dostonlarning qiyosiy tadqiqi.....	160
Z.O'.Sulaymanov "Nahj ul-farodis" – adabiy-badiiy asar.....	163
A.Erdem Oila a'zolari nomlari ishtirok etgan o'zbek xalq maqollari tadqiqi.....	167
N.K.Sabirova Ingliz va o'zbek tillarida paronimiya va omonimiya hodisalari.....	172

## ADABIYOT VA ADABIYOT O`QITISH METODIKASI: UYG`UNLIK VA FARQ

*Shaxlo Isamiddinova Botirova – f.f.b.f.d., dotsent, Toshkent viloyati  
Chirchiq davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot va adabiyot o`qitish metodikasi fanlarining o`ziga xos xususiyatlari, fan tizimida adabiyot o`qitish metodikasining o`rni borasida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda adabiy ta`lim va adabiyot ta`limi tushunchalarining o`xshash va farqli jihatlari birinchi bor tahlil va tasnif qilingan. Adabiyot o`qitish metodikasiga muallifning ta`rifi bayon qilingan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются особенности науки о литературе и методики преподавания литературы, роль методов преподавания литературы в системе науки. Кроме того, в этом исследовании были впервые проанализированы и классифицированы сходства и различия между концепциями литературного образования и преподавание литературы. Дано авторское описание методики преподавания литературы.

**Abstract:** The article discusses the features of the science of literature and methods of teaching literature, the role of methods of teaching literature in the system of science. In addition, this study was the first to analyze and classify the similarities and differences between the concepts of literary education and the teaching of literature. The author's description of the methodology of teaching literature is given.

**Kalit so`zlar:** adabiyot, adabiyot o`qitish metodikasi, adabiy ta`lim, adabiyot ta`limi, fan tizimi, adabiy ta`lim tasnifi, adabiyot ta`limi tasnifi.

**Ключевые слова:** литература, методика преподавания литературы, литературное образование, обучение литературе, система естествознания, классификация литературного образования, классификация обучения литературе.

**Keywords:** literature, methods of teaching literature, literary education, teaching literature, natural science system, classification of literary education, classification of teaching literature.

Adabiyot fani badiiy asarlarning uslubiy, g'oyaviy-mavzuviy va adabiy tur borasidagi xilma-xilligidan kelib chiqib ko'p qirrali ilmiy, ilmiy-uslubiy, ta'limiy va tarbiyaviy masalalar bo'yicha bahs yurituvchi ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Adabiyot dars mashg'ulotlarining maqsadi o'quvchilarni badiiy asar mutolaasiga o'rgatish, uni tushunish, his qilish, talqin va tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Badiiy so'z san'atini anglash esa har bir insonning individual ruhiy xususiyatlari bilan bog'liq ravishda kechadigan jarayondir. Bu jarayonda yozuvchi va o'quvchining dunyoqarashida o'zaro singishish, muayyan darajada muvofiqlik kuzatilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu ma'noda, adabiyot fani dars mashg'ulotlarining ishtirokchilarida erkin fikrlash ko'nikmalarining shakllangan bo'lishi, jamiyatda bo'layotgan hodislarga nisbatan o'z mustaqil pozitsiyasining shakllanganligi, badiiy asar xos bo'lgan millatning etnografiyasi, an'ana va qadriyatlar, tarixi, mentaliteti bilan bog'liq muayyan tushunchalarning mavjud bo'lishi lozim. Adabiyot fani o'qituvchilaridan badiiy asar tahlili jarayonida o'quvchilarni kreativ va nostandart fikrlashga o'rgatish, xuddi shunday fikrlaydigan o'quvchilarning har qanday munosabatlarini (hatto noto'g'ri bo'lsa ham) favqulodda qizg'in kutib olish va rag'batlantirish talab etiladi. Ushbu jihatlar

adabiyotning keng qamrovli hamda o'ziga xos o'qitish uslubiga ega fan ekanligini, uning metodikasini takomillashtirish har bir davrning eng muhim pedagogik muammolaridan ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar tomonidan pedagogikaga nisbatan shakllangan ikki xil qarash: unga fan yoki san'at deb qarash bilan bog'liq yondashuv mavjud. Ammo bu borada aniq to'xtamga kelish, pedagogikaga nisbatan yakdil yondashuvni shakllantirish lozim. Chunki san'at va fan boshqa-boshqa hodisalardir. Bu borada K.D.Ushinskiy shunday deydi: "Fan faqat hozirda bor yoki avval mavjud bo'lgan narsalarni o'rganadi, lekin san'at hali mavjud bo'lmagan narsalarni yaratishga intiladi va ijodning maqsadi va ideali kelajakda uning mavjud bo'lishiga olib keladi. Albatta, san'at o'z nazariyasiga ega bo'lishi mumkin, lekin san'at nazariyasi fan emas; nazariya mavjud bo'lgan hodisalar va munosabatlarning qonunlarini bildirmaydi, balki amaliy faoliyat qoidalarini belgilaydi, bu qoidalarga fanda asos solinadi... "Fanning holati, - deydi ingliz mutafakkiri Jon Styuart Mill, - faqat mavjud faktlar: borliq, mavjudlik, ketma-ketlik, o'xshashlik (hodisalar) ni tasdiqlaydi. San'atning takliflari hech narsa emas, balki nima bo'lishi kerakligini ko'rsatmaydi". Shunisi aniqki, bu ma'noda na siyosat, na tibbiyot, na pedagogikani fanlar deb atash mumkin, chunki ular nimanidir

o'rganmaydilar, balki faqat mavjud bo'lgan narsalarni ko'rish va kerakli vositalarga erishish kerakligini ko'rsatadilar. Shu sababli pedagogikani tarbiya fani emas, san'at deb ataymiz"<sup>1</sup>.

Bizningcha, pedagogikaga nisbatan uning o'rganish ob'ekti, maqsad va vazifalariga, o'zigagina xos ilmiy-pedagogik muammolariga ega fan sifatida qarash maqsadga muvofiq. K.D.Ushinskiyning "...bu ma'noda na siyosat, na tibbiyot, na pedagogikani fanlar deb atash mumkin, chunki ular nimanidir o'rganmaydilar, balki faqat mavjud bo'lgan narsalarni ko'rish va kerakli vositalarga erishish kerakligini ko'rsatadilar" degan fikri nuqtayi nazaridan qaralganda barcha fanlar aslida mavjud bo'lgan qonuniyatlarni kashf etadilar. Xususan pedagogika ham ta'lim va tarbiyaning mavjud qonuniyatlari asosida ish ko'radi. Mavjud qonuniyatlarni o'rganish, uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish va buning asosida ob'ektni tadqiq etish fanning vazifasi hisoblanadi. SHu jihatdan olib qaralganda, adabiyot ta'limini ham ijtimoiy ong shakllaridan biri va o'zining muayyan bilimlar tizimiga ega fan deyish mumkin. O'zining o'rganish predmeti sifatida mavjud voqelikning qonunlarini kashf etish asosida uning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish va oldindan aytib berish xususiyatlariga ega ekanligi, muayyan bilimlar tizimini o'rganuvchi faoliyat turi sifatida namoyon bo'lishi unga fan sifatida qarash imkoniyatini beradi. Adabiyot ta'limi o'quvchilarning estetik talablaridan ko'ra ko'proq ularning intellektual talablarini qondirishga qaratilganligi uning san'atdan farqli soha ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyot o'qitish pedagogikaning alohida yo'nalishi sifatida boshqa fanlardan birmuncha farq qiladi. Badiiy asarning mazmunini ochib berish, uning tahlili va talqinlarini, yozuvchining badiiy mahorati va asar poetikasini o'quvchiga etkazish jarayoni o'qituvchidan o'ziga xos metodik mahoratni talab qiladi. Ushbu metodika adabiyotshunoslikning ilmiy-nazariy asoslari, san'atning estetik ta'sir imkoniyatlari, ijtimoiy munosabatlardagi o'ziga xos ruhiy omillar, so'zning badiiy nafosatini his qilish iqtidoriga tayanilmog'i lozim.

Adabiyotshunos B.To'xliiev adabiyot o'qitish metodikasining ijtimoiy ahamiyatiga

baho berar ekan, jumladan, shunday deydi: "Adabiyot o'qitish metodikasi birinchi navbatda adabiyot o'qitishning, ya'ni adabiy ta'limning maqsadi va mazmuni haqidagi fandir. Ma'lumki, adabiyot ta'limning turli bosqichlarida xuddi boshqa predmetlar kabi o'sib kelayotgan avlod – o'quvchilarga mo'ljallangan. Ta'lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o'quvchilarda – o'sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma'naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyot bilan teng keladigan birorta soha yo'q deb ayta olamiz. Badiiy adabiyot alohida shaxsga ham, butun jamiyatga ham kuchli darajada ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega"<sup>2</sup>.

Adabiyot o'qitishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi mohiyatini ochishda uning o'ziga xos metodikasiga aniqlik kiritib olish darkor. Darhaqiqat, adabiyot o'qitishning o'ziga xosligi uning metodikasida ham o'ziga xoslikni taqozo qiladi. Adabiyot o'qitish metodikasi badiiy asarni sevishdan tortib uni tahlil va tanqid qilishgacha, badiiy mutolaani tashkil qilish va o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini, ularda badiiy did va saviyani shakllantirishdan tortib uni rivojlantirishgacha jarayonlar bilan bog'liq.

"Adabiyot o'qitish metodikasi" tushunchasi borasida adabiyotshunos A.Zunnunov quyidagi fikrlarni aytadi: "Adabiyot o'qitish usuli pedagogika fanining uzviy qismi bo'lib, badiiy adabiyotni tadqiq etadi, adabiyot o'qitish shartlari va usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tatbiq etish, sinfda va uyda o'qish, shuningdek, sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning shakli va usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Uning asosini badiiy asarni ta'lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida o'rganish, o'quvchilarni estetik tarbiyalash jarayoni tashkil qiladi. Shu jarayonda o'qituvchi yozuvchi yaratgan badiiy obrazlarning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdiradi, badiiy obrazning mohiyatini ochadi, o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi"<sup>3</sup>. Rus olimi N.I.Kudryashev esa tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Adabiyot o'qitish metodikasi o'quvchilarni o'quvpredmeti sifatida tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, adabiyotni

1 Ушенский К.Д. Человек как предмет воспитания. Монография. [http://dugward.Ru/library/pedagog/ushinskiy\\_chelovek1.html](http://dugward.Ru/library/pedagog/ushinskiy_chelovek1.html).

2 То'хлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дарслик, Т.: Янги аср авлоди, 2010 й., -Б. 6-7.

3 А.Зуннунов, Н.Хотамов, Ж.Эсонов, А.Иброҳимов. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент "Ўқитувчи"-

1992. 10-бет.

o'qitishdagi ijtimoiy jarayon manbai bo'lgan va unga to'g'ri rahbarlik qilish maqsadida bu jarayonning qonuniyatlarini ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yg'an xususiy pedagogik fandır" 4.

Bizning nazarimizda, ushbu ta'rif va tavsiflarda "adabiyot o'qitish metodikasi" tushunchasining ilmiy va tarbiyaviy jihatlari o'z aksini topgan holda, uning ta'limiy tomonlari yoritilmagan. Biz "adabiyot o'qitish metodikasi" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb hisobladik: adabiyot o'qitish metodikasi o'quvchilarga adabiy ta'lim berishning samarali usul va yo'llarini o'rganuvchi xususiy pedagogik fandır.

Pedagogikamizda "adabiyot ta'limi" va "adabiy ta'lim" muqobil tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bizning nazarimizda, bu ikki tushuncha bir-biridan farq qiladi. "Adabiyot ta'limi" tushunchasi bevosita adabiyot predmeti va uning davriy, nazariy, amaliy bo'limlari bilan bog'liq tushunchadir. "Adabiy ta'lim" esa adabiyot ta'limi va unga bog'liq bo'lgan adabiy mashg'ulotlar: oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy adabiyot vositasida olib boriluvchi tarbiya hamda boshlang'ich ta'limdagi o'qish darsi mashg'ulotlarini ham o'z ichiga oladi. Demak, "adabiy ta'lim" "adabiyot ta'limi"ga nisbatan mazmunan kengroq tushuncha hisoblanadi. Adabiyot ta'limi fan, adabiy ta'lim esa fan tushunchasi doirasidan chetga chiqadi. Alla, ertak, afsona, rivoyat, topishmoq, masal, matal kabi xalq og'zaki ijodi yoki bolalar yozma adabiyoti namunalarining ota-onalar tomonidan aytilishi, mutolaa qilinishi va bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan holda o'ziga xos muhokama, muzokara va mubohasa qilinish jarayonini oiladagi adabiy ta'lim deyish to'g'ri bo'ladi. Oiladagi adabiy ta'lim rasmiy maqomga ega bo'lmaydi va u ota-onaning saviyasi, iqtidori va farzand tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatiga bog'liq. Bu o'rinda tarbiyachini tanlash imkoniyati yo'q. To'g'ri, ba'zan ota-onalar farzandlariga pedagogik ma'lumotga ega tarbiyachi olishi mumkin. Binobarin, oiladagi adabiy ta'lim yollanma tarbiyachilar ixtiyoriga topshirilgan ekan, endi buni oiladagi maktabgacha ta'lim deyish to'g'riroq bo'ladi. Demak, adabiy ta'lim adabiyot ta'limiga nisbatan ertaroq boshlanadi va bola tug'ilgan paytdan boshlab adabiy ta'limdan bahramand bo'la boshlaydi, degan hayotiy xulosaga kelish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida

adabiy ta'lim nisbatan rasmiy tus oladi va davom etadi. Adabiy ta'lim shu davridan boshlab muayyan metodika va talablarga asoslanadi.

Adabiy ta'lim metodikasi adabiyot o'qitish metodikasi va adabiyot vositasida ta'lim va tarbiya berishning samarali usul hamda yo'llarini o'rganadi. Demak, adabiy ta'limda adabiyot ta'limidan farqli ravishda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib (oilada, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda) tarbiyaning maqomiga ustuvorlik beriladi. Ayni shu jihat uning metodikasida ham o'ziga xosliklar bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiy ta'lim tasnifi:

I. O'quvchilarning yosh xususiyatiga ko'ra:

1. Quyi bosqich: oilada, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda.

2. O'rta bosqich: umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'limda:

3. Yuqori bosqich: oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limda.

II. Rasmiy maqomiga ko'ra:

1. Norasmiy: oilada;

2. Rasmiy: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limda.

III. Ta'lim yoki tarbiyaning ustuvorligiga ko'ra:

1. Tarbiyaga ustuvorlik berish asosida: oilada, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda;

2. Ta'limga ustuvorlik berish asosida: umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'limda.


IV. Metodikasiga ko'ra:

1. Tarbiya metodlariga asoslanuvchi: oilada, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda;

2. Ta'lim metodlariga asoslanuvchi: umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'limda.

Ushbu tasnifda adabiy ta'lim boshlang'ich ta'limdan keyin metodik yondashuv, talab va ijtimoiy buyurtma nuqtayi nazaridan keskin burilishga uchrashini va adabiyot ta'limi bilan bir xillik kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Buni quyidagi tasvirda ko'rishimiz mumkin (1.1-rasm):

1.1-rasm. Adabiy ta'lim va adabiyot ta'limi bosqichlari



4 Тухлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Дарслик, Т.: Янги аср авлоди, 2010 й., -Б. 8.

Adabiyot ta'limi tasnifi:

I. Vertikal holatiga ko'ra:

1. Umumiy o'rta ta'lim;
2. O'rta maxsus ta'lim;
3. Oliy ta'lim;
4. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

II. Gorizontal holatiga ko'ra:

1. Ta'limiy: umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim (bakalavr) da;
2. Tadqiqiy: oliy ta'lim (magistratura) va oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktorantura) da.

III. O'qitilish darajasiga ko'ra:

1. Umumiy: umumiy o'rta ta'limda;
2. Chuqurlashtirilgan; umumiy o'rta ta'lim (gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar) va o'rta maxsus ta'lim (akademik litsey) da;

3. Maxsus: Oliy ta'lim (filologik ta'lim yo'nalishlari) da.

IV. Metodikasiga ko'ra:

1. Umumta'lim fanlar metodikasiga asoslanuvchi: umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim (akademik litseylarning nofilologik yo'nalishlari) da;

2. Maxsus fanlar metodikasiga asoslanuvchi: o'rta maxsus ta'lim (akademik litseylarning filologik yo'nalishlari) va oliy ta'lim (filologik yo'nalishlari) da.

Adabiyot o'qitish metodikasi adabiy va adabiyot ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, fan sifatida o'zining muayyan bilimlar tizimi va qonuniyatlariga ega. Uning fan sifatidagi belgilari quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1. Ilmiy metod bilan to'plangan bilimlarning tartibli tizimi;

2. Olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlar tizimi;

3. Ijtimoiy ong shakllaridan biri;

4. Yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyat;

5. Inson bilimlarining muayyan sohasi;

6. O'z o'rganish predmetining qonuniyatlarini o'rganuvchi soha;

7. O'rganish predmetining jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish va oldindan aytib berish sifatiga ega faoliyat;

8. Boshqa fanlar bilan tabiiy aloqadorlik sifati.

Barcha fanlarning asosiy maqsadi o'quvchilarda muayyan sohaga oid bilimlarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat. Fandagi bilimlar tizimi, pirovardda, o'quvchilarning dunyoqarashi va ongini, ma'naviy olami va insoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Bu fan oldidagi o'zgarmas talablardan biridir. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, boshqa birorta fan bu borada adabiyotning oldiga tusha olmaydi. Chunki adabiyot mazmun-mohiyati va maqsad-muddaosi bilan insonning yuqorida qayd etilgan sifatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, adabiyot o'qitish metodikasining jamiyat oldidagi missiyasi o'zining rad qilib bo'lmaydigan asoslariga ega.

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmiy-pedagogik muammo sifatida jamiyat taraqqiyotiga, uning o'z-o'zini anglashiga, joriy etilgan qonun va tamoyillar, strategik maqsad va vazifalarni insonparvarlashtirishga xizmat qiladigan har qanday masalani o'zlashtirish va uning ustida tadqiqot olib borishi mumkin. Ushbu tadqiqotlarda san'atning qonuniyat va tamoyillariga tayanishi lozim.

"O'quvchilardagi barqaror g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy va estetik ishonch-e'tiqodlarning shakllanishi, ularning eng muhim hayotiy tushunchalar mag'zini chaqa olishi ma'lum ma'nolarda adabiyot o'qituvchisining mahoratiga bog'liqdir".5

Darhaqiqat, o'quvchilarda hayotiy voqealarga nisbatan o'z mustaqil qarashlarining shakllanishida, insoniy fazilatlarining rivojlanishida adabiyot fanining, yana ham to'g'rirog'i, adabiyot fani o'qituvchisining roli katta bo'ladi. Bu endi adabiyot fani va uning o'ziga xos estetik ta'sir imkoniyatlari, o'qituvchining o'sha imkoniyatlarni o'quvchilarga yuqtira olish iqtidori bilan sodir bo'ladi.